

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI PSIXOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O‘RTA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN PSIXOLOGIYA FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari psixologlarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning psixologiya fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti psixologiya mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim

etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun o'rta hisobda 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Rivojlanish psixologiyasi (1-3 savollar)		
Psixik taraqqiyot qonuniyatlari	-yosh davrlari (ontogenez) psixologiyasi fani, maqsad va vazifalarini tushuntira olish; -psixik taraqqiyot qonuniyatlarini, ichki va tashqi omillarni tahlil qilish, rivojlanishni harakatga keltiruvchi mexanizmlarni anglash, psixik rivojlanish qonuniyatlarini real vaziyatlarda qo'llay olishni tushunish; -yosh davrlari psixologiyasi metodlarining qo'llanilishi; -psixik rivojlanish mohiyati, psixik rivojlanish omillari va harakatlantiruvchi kuchlarini izohlab bera olish.	3
2. Oila psixologiyasi (4-7 savollar)		
Oila va oilaviy munosabatlarning farzand tarbiyasiga ta'siri	-oila tushunchasi va uning psixologik asoslarini tushuntira olish; -oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oilada shaxs rivojlanishi, oila krizislari va ularni yengish; -tarbiya ushlari va ularning farzand rivojiga ta'sirini baholay olish; -ijtimoiy-psixologik omillar va farzand rivojlanishi bilan bog'lab tahlil qila olish; -oilaviy psixodiagnostika va terapiyani qo'llay olish; -oila psixologiyasining zamonaviy yo'nalishlarini tavsiflay olish.	4
3. Hayotiy davrlar va rivojlanish bosqichlari psixologiyasi (8-11 savollar)		
Yosh inqirozlari va yoshni davrlashtirish	-psixik rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan miqdor va sifat o'zgarishlarni tavsiflay olish; -yosh inqirozlari tushunchasini anglash, ularning sabablari va psixik rivojlanishdagi ahamiyatini tahlil qilish, inqirozli bosqichlarni aniqlash va ularga mos psixologik yondashuvni qo'llay olish; -turli psixologik yondashuvlar asosida yoshni davrlarga bo'lish, psixik rivojlanishning asosiy yosh davrlarini tavsiflay olish; -inson hayotining psixik taraqqiyot bosqichlarini tizimli tahlil qilish, har bir davrning psixologik xususiyatlarini aniqlay olish, yoshni davrlashtirish mezonlarini tushuntira olish.	4

4. Inklyuziv ta'lim (12-15 savollar)		
Ta'lim jarayonida individual va maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash psixologiyasi	<i>-inklyuziv ta'lim tushunchasi va tamoyillari, inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalarini tushuntira olish;</i> <i>-inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik va psixologik aspektlari, imkoniyati cheklangan bolalar toifalarini tavsiflay olish;</i> <i>- Inklyuziv sinfda o'qitish metodikasi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan aloqa o'rnatish, yozish va qo'l motorikalarini rivojlantiruvchi usullarni taklif etish;</i> <i>-autistik spektori buzilgan bolalarda kuzatiladigan muammolar tahlil qila olish va ularga mos tavsiyalar ishlab chiqar olish;</i> <i>-imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalar uchun tavsiyalar bera olish.</i>	4
5. Yosh psixologiyasi (16-31 savollar)		
5.1 Maktabgacha ha yosh davri psixologik xususiyatlari	<i>-maktabgacha yosh davrida jismoniy va psixik rivojlanish xususiyatlarini tavsiflay olish;</i> <i>-maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyatining ahamiyatini tushuntira olish;</i> <i>-bolaning maktab ta'limiga tayyorligi darajasini baholay olish;</i> <i>-maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish, emotsional, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlay olish va amaliy holatlarda qo'llay olish.</i>	3
5.2 Kichik maktab yosh davrida psixik rivojlanish	<i>-kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflay olish;</i> <i>-kichik maktab yoshining psixologik xususiyatlarini tushuntira olish;</i> <i>-kichik maktab yoshida o'quv faoliyatining mazmuni va ahamiyatini tahlil qila olish;</i> <i>-kichik maktab yoshida bilish jarayonlarining rivojlanishini izohlab bera olish.</i>	4
5.3 O'smirlik davri psixologiyasi	<i>-o'smirlik davrida jismoniy taraqqiyot va yangi psixologik tuzilmalarning yuzaga kelishi;</i> <i>-o'smirlik davri ontogeneznining alohida bosqichi sifatida izohlab bera olish;</i> <i>-o'smirlikdagi o'zgarishlarni, shaxsiy inqiroz holatlarini, emotsional va ijtimoiy o'zgarishlarni anglash, tahlil etish, pedagogik yondashuvni shakllantirish va qo'llay olish;</i> <i>-o'smirlarning o'zaro munosabatlari, kattalik hissining yuzaga kelishi.</i>	5
5.4 Ilk o'spirinlik davrida psixik va shaxs rivojlanishi	<i>-ilk o'spirinlik davrining asosiy muammolarini aniqlay olish;</i> <i>-o'spirinlik davriga xos shaxsiy o'zgarishlarni aniqlash, voqeaga asoslangan shaxsiy holatni tahlil qilish;</i> <i>-shaxsiy identifikatsiya jarayonini izohlab bera olish;</i> <i>- maqsad qo'yish, axloqiy dunyoqarash shakllanishi va shaxsning mustaqil rivojlanish omillarini tushunish.</i>	4
6. Kasb psixologiyasi (32-35 savollar)		
Kasb psixologiyasi sining nazariy va amaliy asoslari	<i>-kasbning psixologik mohiyati. Kasb tanlash psixologiyasini tushuntira olish;</i> <i>-kasbiy moslashuv va kasbiy rivojlanish jarayonlarini, kasbiy motivatsiya hamda ishga munosabatni tahlil qila olish;</i> <i>-ish faoliyatidagi psixologik xavfsizlikni ta'minlash omillarini baholay olish;</i> <i>-kasbiy kompetensiyalar va ish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlay olish hamda mehnat psixodiagnostikasini qo'llay olish;</i> <i>-kasbiy konfliktlarni aniqlay olish va ularni boshqarish usullarini qo'llay olish;</i> <i>-etika va professional qadriyatlarining ahamiyatini izohlab bera olish.</i>	4

**Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test
topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari
bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10 ta
2. Pedagogik mahorat	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – maxsus pedagogika, inklyuziv ta'limning nazariy asoslarni bilish, o'quv-korreksion mashg'ulot metodlarini farqlash; – maxsus fanlarni o'qitishda keyslar asosida to'g'ri pedagogik yechimni tanlash, rivojlanish dinamikasini baholash tamoyillarini va yondashuvlarni bilish, qaysi holatda qaysi texnologiyalarning mosligini bilish; – test, so'rovnoma, kuzatuv metodlarining qo'llanish doirasini bilish va mos yondashuvni vaziyatga qarab tanlash.	10
Jami		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Mutaxassislik fanidan umumiy 70 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Davlenshin M.G., Do‘stmuxamedova Sh.A. va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T., TDPU, 2004.
2. Do‘stmuxamedova Sh.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X. va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.T., Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi. 2013.
3. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. T., Faylasuflar nashriyoti, 2013.
4. Jalilova S.X. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya. T, Innovatsion ziyo, 2020.
5. G‘oziev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. T., “Noshir”, 2010.
6. M.G.Davletshin, Sh.Do‘stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To‘ychiyeva, M. Djumabayeva., Yosh va pedagogik psixologiya (o‘quv qo‘llanma) T – 2007.
7. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya (psixologiya mutaxassisligi uchun darslik) 1 kitob T. – 2002.
8. Hudoyqulov X.J., Xolov O.Ch. “Tarbiya ishlar metodikasi” (O‘quv qo‘llanma) Termiz – 2020.
9. Krayg G. Rivojlanish psixologiyasi/ G. Krayg. SPb., 2000. Glava 1.
10. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. – SPb.: Piter, 2007.
11. Shamshetova A., Melibayeva R.N., Usmanova X., Xaydarov I.Umumiy psixologiya. –T.: 2018.
12. Nishonova Z.T., Alimova G.Q. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. T. TDPU, 2005.
13. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (Ma’ruzalar Matni) «Musiq» Nashriyoti Toshkent 2005.
14. Olimov L. Ya., Nazarov A. M. “Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi” (o‘quv qo‘llanma) 2020 y.
15. D. Abdullaeva, R. Yorqulov, N. Atabaeva “Oila psixologiyasi” –O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2015y
16. Илхом Мадатов “Inklyuziv ta’lim” BEST-PUBLISH ISBN: 978-9910-9291-5-1- 2024. - 239 bet
17. Inklyuziv ta’limda korreksion rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar – metodik qo‘llanma. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI-2025
18. Umumta’lim psixologlari uchun uslubiy qo‘llanma – maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi 2025-y.

19. S.X.Jalilova, F.I.Haydarov, N.I.Halilova “Kasbiy Psixologiya” – (o‘quv qo‘llanma) – 2010-y.

Normativ - huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari <https://lex.uz/docs/5077667>

Elektron ta’lim resurslari:

1. <https://www.oecd.org/pisa/test/pisa-2022-mathematics-test-questions.htm>

2. www.gwpcacena.org

3. www.pedagog.uz

4. www.ziyonet.uz

5. www.gov.uz

6. www.connect.uz

7. <http://www.sportedu.uz>

8. <http://edu.uz>

9. <http://lex.uz>

10. <https://raqamlitalim.trm.uz/>

11. <https://raqamlitalim.trm.uz/psychology-support>

12. <https://raqamlitalim.trm.uz/competation/1>

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.

3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.